

## MAQOLLAR LINGVISTIK IZLANISHNING OB'EKTI SIFATIDA

**Toshqo'zиеva Madinaxon Abduvoxid qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti*

**Mirzaeva Dilshoda Ikromjonovna, Ph.D**

*Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, [m.nurafshon95@gmail.com](mailto:m.nurafshon95@gmail.com)*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** lingvistika, kognitiv tilshunoslik, maqol, izlanish, hikmatli so'z, janr, ibora.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada maqollar lingvistik izlanishning ob'ekti sifatida o'rganilgan va tahlillar amalga oshirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, til insonning o'z hayotida to'plagan tajribalarini ifoda etadi. Bu hayotiy tajribalar har bir halkning hatti harakatlarida, tilida va hikmatli so'zlarida aks etib, ular ma'lum bir madaniyatni, halkni o'ziga xos xarakterini ham ko'rsatadi. Bu hikmatli so'zlarining avloddan avlodga o'tib kelishida maqollarning o'rni beqiyos. Maqollar kichik xajmli, ma'lum bir halkning turmush tarzini ifodalovchi hikmatli so'zlar jamlanmasidir. Maqollar boshqa janrlardan farqli o'laroq, ular tarkibida barcha mavzudagi ibratli iboralarni shuningdek diniy, oilaviy, ijtimoiy va tarbiyaviy maqollarni uchratish mumkin. Maqollarning zamirida donolik aks etadi, shuning uchun ham xalqimiz ibratli so'zlar aks etmagan maqollarni oyoqsiz tanaga o'hshatishgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarining mashhur olimi Volfgan Mider maqollar hakida 50 dan ortiq kitob chop etgan va bu ilmiy asarlar boshqa tilshunoslar uchun qo'llanma bo'lib kelgan. V. Mider o'z tadqiqotlarida XVI va XVII asrlar maqollar o'rganishning oltin davri deb qaraydi, chunki bunda maqollarning yirik to'plamlarini jamlashda tilshunoslar A.A Krikmann va G. Vilson kabi tilshunoslar ishtirok etishgan. V Mider o'z kitobida maqollarga quyidagicha ta'rif beradi: «Maqol – qisqa, halkning donoligi va milliy qarashlari metaforik jihatdan tasvirlangan, esda tez saqlanadigan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan hikmatli so'zlardir» [b.119]. Olim yana shuni qushimcha qiladiki, maqollar barcha xalqlarda mavjuddir, lekin ba'zi bir xalqlar ijodida maqollarning soni ko'p foizni tashkil etadi, bunga misol tariqasida G'arbiy Afrika xalqlari og'zaki ijodida Amerikaning shimoliy va janubiy qismida yashovchi aholinikiga qaraganda maqollar ko'prok ishlatiladi. Bundan tashqari maqollar bir biriga qardosh halqlar va madaniyatlar o'rtasida sayqallanadi, chunki ularning yaratilishi umumiy bir manbaaga borib taqaladi. Masalan, Yevropa xalqlaridagi ko'pgina maqollar Bibliya va lotin tilida yozilgan adabiyotlarga asoslanib yaratilgan. [2, 119]

Maqol va matallarning yirik to'plamlarini yig'ish XIX asrning 20yillarida XX asr o'rtalarigacha davom etgan. Shu qatorda maqollarning yirik to'plami mashhur tilshunos V.I. Dal tomonidan chop etilgan. Bu to'plamga 30 mingdan ortiq maqol va matallar kiritilib, u o'zida dehqonlar, hunarmandlar, jangchilar haqida iboralarni o'zida jamlagan. Bu to'plam 1861-1862-yillarda chop etilgan. [5, 197]

Maqollar hakidagi nazariya birinchi bo'lib G.L Permyakov tomonidan ishlab chikilgan. Uning «Mataldan ertakgacha » deb nomlangan asarida maqollarni lisoniy jihatdan tahlil etganda paremiyaga mantiqiy-semantik yondashuv lozimligini ta'kidlagan.[4, 58]

Surat qismida munozaralar ifodalanadi va izohlar bilan to'ldiriladi, ikkinchi qismida esa tinglovchilarning zakovati va shu munozaralarning idrok etish xolati beriladi. [3, 128]

XX asrda maqollar yirik badiiy asarlarda xam o'rin oldi. Yozuvchilar o'z asarlarida xalq maqollarini ko'p qo'llagan, chunki bu iboralar xar kandy nazariy munozaralarni qisqa qilib yechim orqali yakunlashga imkon beradi. Xar bir xalq o'z maqol va matallariga ega bo'lib, ular boshqa tillarda o'z ekvivalentga ega bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda «suzlarning ekvivalenti» atamasini dastlab L.V Sherba olib kirgan. Olimning fikriga ko'ra, suzlar birikmalarda bir xil ma'noni anglatsada bir biriga yashirin ravishda ekvivalent bo'lishi ham mumkin. [1, 19]

G. Bufeni maqollarning xammasi haqiqatga yaqin bulishi mumkin emas, ko'pgina maqollar borki, ular bir biriga qarama-qarshi ma'noni bildiradi, deb ta'kidlaydi. Olimning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, maqollar tarkibidagi so'zlarning qo'llanishiga ko'ra, maqollar ma'lum vaziyatda to'laligicha mos bulib boshqa holatda shu fikr o'zaro qarama-qarshi ma'noni anglatishi mumkin. Bundan tashqari G. Bufeni ta'kidlaydiki, «Maqollar to'plamlar ichida qarama-qarshi ma'noni bildiradi, ammo ijtimoiy muhitda ular jonli tildagi kabi mavjud, va ularning ma'nosi aniq bir ijtimoiy hodisada aniqlanadi». [2, 173]

Oxirgi yillarda olimlarning maqollardagi o'zgarishlarga nisbatan munosabati keskin o'zgardi va bu anti-proverb (makollarga qarshi) deb nom oldi. V. Miderning tadqiqotlariga ko'ra, an'anaviy maqollarning turli xil shakllari vujudga kelyapdi, chunki insonlarning eski maqollarni tushinishi og'irlashyapti va shu sababli ham maqollar qarama-qarshi ma'nolarni anglatib kelmokda. Ammo semantik va grammatik xususiyati saqlanib qolib, ularning ekvivalentlari vujudga keladi. An'anaviy maqollardan anti-maqollarning yaratilishining asosiy sababidan biri, anti-maqollarning tinglovchilar tomonidan tez va oson eslab qolishidir. Masalan "Old soldiers never die, they just fade away,"(qari askarlar o'lmaydi ular fakat ishdan kitishadi) "Old taxes never die, they just change their names".(taksi haydovchilari o'lmaydilar ular faqat ismlarini o'zgartirishadi). Bu maqolda 'soldiers, ya'ni 'askar so'zi zamonaviy xayotda o'z qullanishini yukotganligi sababli hozirda keng foydalaniladigan 'taksi suzi bilan almashtirilgan. Bunday anti-maqollarning vujudga kelishi XX asrda kuchaydi.

Tilshunoslikda tadqiqot masalalari hozirda rivojlanib bormoqda va bunga asosiy sabab tilshunoslikning bo'limlari hisoblangan leksikologiya, morfologiya, stilistikada qilingan tadqiqot ishlarini raqamlarda aks ettirish tilshunoslikning eng qiziqarli metodi bo'lib borishidir. Dissertatsiyaning uchinchi bobining birinchi bo'limida lingvistik statistika yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, rivojlanish yo'llari ularning turlari, vazifasi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga Statistika lingvistik matematik lingvistikaning ma'lum bir qoidalariga bo'ysinishi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, lingvistikani asosiy yo'nalishlaridan biri va statistik lingvistikaga qiziqishning ortishi va uning ustida izlanishning olib borilishi va 1960-1980-yillardagi statistika ustida olib borilayotgan izlanishlar aytib o'tildi. Statistika yondashuvning rivojlanishiga asosiy sabab shundaki u tahlilning betartib raqamlari bilan ishlashda katta yordam beradi. Bunday metod til birligining statistik xususiyatini ko'rsatib beradi va til tadqiqotining matematik metodi deb nomlanadi. Tilshunoslikda Amerikalik olim G. Zipf ishlari ham o'rganilib u o'zini statistik lingvistikaga katta hissa qo'shganligi bilan ahamiyatlidir. dissertatsiyaning 3-bob olimlarining lingvistik statistika yuzasidan olib borgan tadqiqoti haqida fikr tasvirlandi. Uning ikkinchi bo'limida esa inson va uning xarakteriga oid maqollarning statistik tahlili va uning ikki tilda ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar miqdoriy ko'rsatgichi va foizdagi ko'rinishi ifodalangan. Berilgan foizlar bo'yicha ularning o'rinlari berilib ikki tilda taqqoslab ko'rsatildi. Bunda jadval ko'rinishi maqollar miqdori va foizini tasvirlashda foydalanildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия. – М., 1990. – С. 136-137.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Т.: 2008. – Б. 59-241.
3. Donnellan K.S. Reference and Definite Descriptions // *Philosophical Review*. № 75. Reprinted in Steinberg and Jakobovits, 1971. – P. 100-114.
4. Grzybek P. Überlegungen zur semiotischen Sprichwortforschung. P. Grzybek (ed.), *Semiotische Studien zum Sprichwort. Simple Forms Reconsidered I. Special Issue of Kodikas Code – Ars Semiotica. // An International Journal of Semiotics*. № 3/4, 1984. – P. 215-249.
5. Filatkina N. Pragmatische Beschreibungsansätze. In H. Burger et al. (eds.), *Phraseologie. Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung*. 1. Halbband. – Berlin/New York: de Gruyter, 2007. – P. 132–158.